

Shuhrat ORIPOV,
xalqaro munosabatlar bo'yicha ekspert



O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON – do'stlik va ishonchga asoslangan strategik hamkorlik



Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalari tarixan sivilizatsiyalar tutashgan, savdo yo'llari kesishgan va turli xalqlar madaniyatlari o'zaro boyib borgan hududlar hisoblanadi. Bu ikki hududda joylashgan O'zbekiston va Ozarbayjon davlatlari o'rtasidagi munosabatlar ham ana shu tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Qayd etish lozimki, bu mamlakatlarning o'zaro munosabatlari tarixiy, madaniy va siyosiy jihatdan chuqur ildizlarga ega. Bu ikki davlat turkiy dunyo sivilizatsiyasining muhim qismi hisoblanadi. Ikki xalqni umumiy til oilasi, madaniy an'analar, urf-odatlar va tarixiy meros birlashtirib turadi.


O'zbekiston va Ozarbayjon xalqlari o'rtasidagi aloqalar faqat zamonaviy siyosiy munosabatlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu munosabatlar ildizlari ming yillik tarixga, Buyuk Ipak yo'li davriga, turkiy sivilizatsiyaning rivojlanish bosqichlariga borib taqaladi. Savdo-sotiq,

madaniy almashinuv, ilm-fan va adabiyot sohalaridagi hamkorlik ikki xalqni bir-biriga yanada yaqinlashtirgan.

XXI asrda xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi siyosiy munosabatlar nafaqat ikki davlat uchun, balki butun mintaqa barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy ildizlar

Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyo va Kavkaz o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar bilan bir qatorda Boku, Ganja va Shamaxi kabi shaharlar ham savdo va madaniyat markazlari sifatida rivojlangan. Bu shaharlar o'rtasidagi aloqalar orqali iqtisodiy



munosabatlar rivojlanishi bilan birga madaniy va siyosiy aloqalar ham shakllangan. Savdo karvonlari orqali xalqlar o'rtasida bilim, madaniyat va ilmiy g'oyalar almashinuvi amalga oshirilgan. Bu jarayon xalqlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytirgan.

Turkiy xalqlar sivilizatsiyasi doirasida O'zbekiston va Ozarbayjon xalqlari o'rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlangan. Ikki xalqning adabiyoti, folklori va san'atidagi o'xshashliklar bu umumiy madaniy merosning yaqqol namunasi hisoblanadi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo va Kavkaz o'rtasidagi aloqalar yanada rivojlangan. Ayniqsa, Temuriylar davrida savdo yo'llari xavfsizligi ta'minlanib, shaharlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar faollashgan. Bu davrda madaniy almashinuv ham kuchaygan.

Ikki xalqning ma'naviy merosida ham umumiyliklar ko'p. Bunda buyuk mutafakkirlar va davlat arboblari muhim o'rin egallaydi. Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy kabi allomalarning asarlari turkiy xalqlar madaniyatining umumiy boyligi sifatida qadrlanadi.

1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida O'zbekiston va Ozarbayjon mustaqil davlatlar sifatida xalqaro munosabatlar tizimiga kirib keldi. Shu davrdan boshlab ikki davlat o'rtasida yangi formatdagi diplomatik munosabatlar shakllana boshladi.

O'zbekiston Ozarbayjon mustaqilligini tan olgan ilk davlatlardan biri bo'ldi. Keyinchalik ikki davlat o'rtasida rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1996-yil Boku shahrida O'zbekiston elchixonasi, 1998-yil esa

Toshkentda Ozarbayjon elchixonasi ochildi. Bu diplomatik vakolatxonalar ikki davlat o'rtasida siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik va madaniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi uchrashuvlar va imzolangan hujjatlar siyosiy hamkorlikning huquqiy asosini shakllantirdi. Davlatlararo shartnomalar, deklaratsiyalar va memorandumlar ikki mamlakat munosabatlarini institusional jihatdan mustahkamladi. Shu davrda parlamentlararo hamkorlik ham rivojlana boshladi. O'zbekiston va Ozarbayjon parlamentlari o'rtasidagi aloqalar siyosiy muloqotni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi.

Muloqotlar va birodarlikda yangi davr

So'nggi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev o'rtasidagi faol siyosiy muloqotlar, ikki davlat o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi o'zaro munosabatlarning strategik darajaga chiqishiga xizmat qildi. Davlatlararo tashriflar, imzolananayotgan kelishuvlar va amalga oshirilayotgan qo'shma tashabbuslar siyosiy hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi.

Oliy darajadagi muntazam uchrashuvlar siyosiy muloqotning yuqori darajada olib borilayotganini ko'rsatadi. Tashriflar doirasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va gumanitar sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga qa-

ratilgan ko'plab kelishuvlar imzolanmoqda. Bu munosabatlar o'zaro manfaatli hamkorlik va uzoq muddatli hamkorlik tamoyillariga asoslanadi.

Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar doirasida ham ikki davlat bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bu holat O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi siyosiy ishonch darajasining yuqori ekanini ko'rsatadi. Mamlakatlar mintaqaviy siyosatda ham o'xshash pozitsiyalarga ega. Ular xalqaro munosabatlarda tinchlik, barqarorlik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa mintaqaviy institutlar doirasida ham ikki davlat o'zaro hamkorlikni rivojlantirmoqda. Strategik sheriklik davlatlar o'rtasida siyosiy ishonchni mustahkamlash, xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Davlatlarning tashqi siyosatidagi ochiqlik tufayli o'zaro iqtisodiy, transport, energetika va gumanitar hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, savdo aylanmasi yildan-yilga oshib bormoqda. 2017-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi taxminan 32,4 million AQSH dollari atrofida bo'lgan. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich bir necha barobarga oshdi. 2024-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 252 million AQSH dollaridan oshgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 41 foizga ko'pdir. 2023-yilda bu ko'rsatkich 178,7 million AQSH dollari bo'lgan. Shuningdek, 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida savdo aylanmasi 318,9 million AQSH dollariga yetgani qayd etilgan.

Eksport-import aloqalari, investisiyaviy hamkorlik va transport-logistika loyihalari ikki mamlakat iqtisodiy munosabatlarining asosiy drayverlari hisoblanadi. O'zbek va ozarbayjon tadbirkorlari o'rtasida sanoat kooperatsiyasi loyihalari amalga oshirilmoqda. Energetika, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, kimyo sanoati va to'qimachilik sohalarida qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda 240 dan ortiq ozarbayjon kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, Ozarbayjonda ham 70 ga yaqin o'zbek kompaniyalari tashkil etilgan. O'zaro investisiyaviy hamkorlik ham kengayib bormoqda. Ikki davlat kelgusida qo'shma investisiya portfelini 10 milliard dollarga yetkazishni rejalashtirmoqda.

O'zbekistondan Ozarbayjonga qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik va tayyor kiyim-kechak, mashinasozlik va sanoat mahsulotlari eksport qilinmoqda. Ozarbayjondan O'zbekistonga eksport qilinadigan mahsulotlar esa asosan neft-kimyo mahsu-

lotlari, energiya resurslari, metall va kimyo mahsulotlarini tashkil etmoqda. 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning Ozarbayjonga eksporti 210,7 million AQSH dollariga yetgan. Shu bilan birga, Ozarbayjondan O'zbekistonga import hajmi 57,4 million AQSH dollariga teng bo'lgan.

Kelgusida ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmini 1 milliard AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilmoqda. Bu esa O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yanada chuqurlashishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi transport va logistika sohasi hisoblanadi. Bu sohada amalga oshirilayotgan loyihalar mintaqaviy savdo aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo va Kavkazni bog'lovchi transport yo'laklari ikki davlat uchun strategik ahamiyatga ega. Transkaspiy transport yo'lagi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'lak orqali yuklar Markaziy Osiyodan Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjonga, u yerdan esa Yevropa mamlakatlariga yetkazib beriladi. Bu loyiha xalqaro savdo va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekiston va Ozarbayjon bu transport yo'lagini rivojlantirish bo'yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Madaniy aloqalar – ustuvor yo'nalish

Madaniy va gumanitar aloqalar ikki xalq o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ikki xalqning madaniy yaqinligi turkiy til oilasiga mansubligi bilan ham bog'liq. O'zbek va ozarbayjon xalqlari turkiy xalqlar hisoblanadi va ularning madaniyati, tili va urf-odatlarida ko'plab o'xshashliklar mavjud.

Bugungi kunda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy hamkorlik ta'lim, fan, san'at, turizm, adabiyot yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda. Madaniy aloqalarda, ayniqsa, adabiyot va san'at sohasi muhim o'rin tutadi. Ikki xalq adabiyotidagi o'xshashliklar va umumiy g'oyalar madaniy hamkorlikning mustahkam asosini tashkil etadi. Misol uchun, o'zbek va ozarbayjon xalqlari folkloridagi qahramonlik dostonlari, milliy musiqa va xalq og'zaki ijodi namunalari xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni namoyon etadi.

Teatr va kino sohasida ham aloqalar rivojlanmoqda. O'zbekiston va Ozarbayjon teatr jamoalari ishtirokida turli festivallar va gastrollar tashkil etilmoqda. Bu esa ikki mamlakat madaniy muhitini yanada boyitishga xizmat qilmoqda. Musiqa san'ati sohasida ham hamkorlik kengayib bormoqda. Milliy musiqa an'analari, jumladan, maqom va mug'om san'ati turkiy xalqlar madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.



Ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik madaniy aloqalarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston va Ozarbayjon oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik shartnomalari imzolangan. Talabalar almashinuvi dasturlari, qo'shma ilmiy tadqiqotlar va konferensiyalar ikki mamlakat o'rtasidagi akademik hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Ta'lim yo'nalishida amalga oshirilgan muhim loyihalaridan biri – O'zbekiston tomonidan Ozarbayjonda zamona-viy maktab qurilishi hisoblanadi. Bu maktab nafaqat ta'lim muassasasi, balki ikki davlat o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik va o'zaro ishonchning ramzi sifatida qaraladi.

O'zbekiston tomonidan Ozarbayjonda maktab qurish tashabbusi ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi do'stona munosabatlar va strategik hamkorlikning amaliy mahsulidir. Maktab qurilishi Ozarbayjonning Qorabog' hududida amalga oshirildi. Bu hududda uzoq yillar davom etgan nizolar natijasida ko'plab infratuzilma ob'ektlari vayron bo'lgan edi. O'zbekiston tomonidan qurilgan maktab ushbu hududda ta'lim infratuzilmasini tiklashga qaratilgan muhim gumanitar tashabbuslardan biri bo'ldi. Bu orqali O'zbekiston Ozarbayjon xalqiga qo'llab-quvvatlash va hamjihatlik ramzini namoyon qildi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur maktab nafaqat ta'lim muassasasi, balki mintaqada tinchlik, taraqqiyot va hamkor-

likni mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim gumanitar loyiha hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar sohasida ham ikki davlat olimlari o'zaro hamkorlik qilib kelmoqda. Turkiy sivilizatsiya, tarix, madaniyat va tilshunoslik sohalarida qo'shma ilmiy loyihalar amalga oshirilmogda. Bu hamkorlik nafaqat ilm-fan rivojiga, balki ikki xalq o'rtasidagi madaniy yaqinlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlarida madaniy diplomatiya muhim rol o'ynamoqda. Ikki davlatda muntazam ravishda madaniyat kunlari, ko'rgazmalar, konsertlar va festivallar o'tkazib kelinmoqda. Bu tadbirlar xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, turizm sohasidagi hamkorlik ham madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turistik almashinuv orqali xalqlar bir-birining madaniyati va an'analarni yaqindan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy aloqalar nafaqat ikki davlat, balki butun turkiy dunyo uchun muhim ahamiyatga ega. Bu aloqalar turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarixiy meros, umumiy madaniy qadriyatlar va turkiy sivilizatsiya an'analari ikki davlat munosabatlarining mustahkam asosini tashkil etadi.



Shu bilan birga, madaniy hamkorlik mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Madaniy hamkorlik orqali xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmat kuchayadi. Bu esa siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning ham mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Zero, zamonaviy sharoitda madaniy hamkorlik siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Shu sababli kelgusida ham O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy aloqalar yanada kengayishi kutilmoqda.

Istiqbol sari dadil qadamlar

Siyosiy ishonch, iqtisodiy hamkorlik, transport va madaniy aloqalar O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlarining mustahkam asosini tashkil etadi. Kelgusida bu hamkorlikni yanada kengaytirish va yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish ikki mamlakat uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Muntazam siyosiy muloqotlar va oliy darajadagi tashriflar siyosiy hamkorlikni yanada mustahkamlashning asosi bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida siyosiy munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish, tashqi siyosat sohasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik ham ikki mamlakat munosabatlari-

ning istiqbolini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlarining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida sanoat kooperatsiyasi, energetika, qishloq xo'jaligi va transport sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ayniqsa, transport va logistika sohasidagi hamkorlik ikki mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi Markaziy Osiyo mamlakatlarini Kavkaz va Yevropa bilan bog'lovchi muhim yo'nalish hisoblanadi. Bu yo'lak orqali yuk tashish hajmini oshirish iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi transport yo'laklarini rivojlantirish ikki mamlakat munosabatlarining muhim istiqbollardan biri bo'lib qoladi.

Shuningdek, ta'lim, ilm-fan, turizm, adabiyot va san'at sohalaridagi madaniy hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari mavjud. Qo'shma madaniy tadbirlar, festival-lar va ilmiy konferensiyalar ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi siyosiy munosabatlar o'zaro ishonch va do'stlik tamoyillariga asoslangan. Bu hamkorlikning istiqboli juda keng va mazkur jarayonlar butun mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. 🌟